

## «Humans Market» marketleysi qoidalari

«Humans Market» marketpleysining ushbu Qoidalari (keyingi o'rinlarda - **Shartnoma**) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 369 moddasiga binoan Ommaviy oferta bo'lib, «Humans» MChJdan, manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'ch., 2b, ro'yxatgan o'tgan davlat raqami 749733, STIR 306624856 (keyingi o'rinlarda «Humans») ishga layoqatli jismoniy shaxslar - Xaridorlarga yo'naltirilgan.

Shartnoma Humans'ning har qanday Xaridorga quyidagi shartlarga asosan Shartnomani tuzish uchun ommaviy taklifi (oferta) hisoblanadi. . Xaridor «Humans Market» marketpleysidan foydalanishdan oldin ushbu Shartnoma bilan to'liq tanishib chiqishi shart. Mobil ilovada ro'yxatdan o'tish (yangilar uchun), birinchi marta Buyurtma qilish (eskilar uchun matn Do'kon Kartachasida joylashtirilgan), va demakki, «Humans Market» marketpleysining har qanday funksiyasi, dasturiy imkoniyatlaridan foydalanish ushbu ofertani qabul qilganligi (aksept) hisoblanadi va Xaridor tomonidan ushbu Shartnoma to'liq va so'zsiz qabul qilinganligini anglatadi.

### Atamalar va ta'riflar

Atama	Ta'rif
«Avtorizatsiya»	Xaridorni identifikatsiya qilish jarayoni, login (e-mail) yoki telefon raqami va parol kiritish orqali Humans Mobil ilovasiga kirish uchun.
«Bloklash»	Marketpleysda Xaridor amallar bajarishini taqiqlash.
«Buyurtmani rasmiylashtirish»	Xaridroning Sotuvchi bilan Mahsulotni olib-sotish haqidagi shartnomani tuzishga va/yoki Sotuvchi yoki Humans bilan Mahsulotni yetkazish shartnomasini tuzishga qaratilgan harakatlari. Har bir buyurtmaga alohida raqam beriladi.
«Mobil ilova»	Xaridorlarga jumladan Marketpleysdan ham foydalanish imkonini beradigan, Xaridorning abonentlik qurilmasiga (smartfon, planshetiga) o'rnatiladigan, mobil operatsiyaviy tizimlar uchun bo'lgan Humans ilovasi ko'rinishidagi dasturiy ta'minot.
«Humans Market», «Marketpleys»	Xaridorga Mahsulot haqida ma'lumotga ega bo'lish, uni Sotuvchidan buyurtma qilish va Mahsulot to'lovini amalga oshirish imkonini beradigan Humans servisi.
To'lov tashkiloti, Elektron pullar tizimi operatori	«Maroqand» MChJ, manzil: 100164, Toshkent sh., Navnihol ko'ch., 8 uy, STIR 305465762, To'lov tashkiloti litsenziyasi №6 23.04.2020 yildan, <a href="https://upay.uz">https://upay.uz</a> . Xaridorlarning to'lovlarini elektron shaklda qayta ishlaydi va bank yoki boshqa to'lov tashkilotlariga to'lovni amalga oshirish uchun

Atama	Ta'rif
«Huquqbuzarlik harakatlari»	zarur ma'lumotni yetkazish bilan shug'ullanadicesуществляющее. Humans, Sotuvchilar va (yoki) boshqa Xaridorlarning huquqlarni suiste'mol qilish, shuningdek aldash va (yoki) ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan g'arazgo'ylik maqsadlarida sodir etilgan va mulkini (pul mablag'lari va boshqa moddiy boyliklarini) noqonuniy egallab olishga qaratilgan harakatlar.
«Xaridor»	Marketpleysda Mahsulotlar buyurtma qilish orqali Sotuvchidan masofadan turib buyurtma qilish yoki sotib olish niyatida bo'lgan yoki buyurtma qilgan, sotib olgan va Mahsulotdan tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, faqat iste'mol maqsadlarida (shaxsiy, oilaviy, maishiy va boshqa maishiy (kundalik) ehtiyojlarda (maqsadlarda)) foydalanadigan jismoniy shaxs.
«Shaxsiy ma'lumotni qayta ishlash siyosati»	<a href="http://www.humans.uz">www.humans.uz</a> saytida va Mobil ilovada joyalshtirilgan, Xaridorlarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashni nazarda tutadigan Humans ofertasi. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun Humans tomonidan qo'llaniladigan tashkiliy va texnik choralar.
«Sotuvchi»	Mahsulotlarni bozor orqali xaridorga masofaviy usuldan foydalangan holda sotishni amalga oshiradigan va Marketpleysda ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki professional daromad solig'i to'lovchisi.
«Mahsulot»	Sotuvchi va Xaridor o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining predmeti bo'lgan, fuqarolik muomalasida erkin mavjud bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan mashsulotlar.
«Buyurtma»	Xaridorning Mahsulotni sotib olish to'g'risidagi so'rovi (Sotuvchi bilan Mahsulotni oldi-sotdi shartnomasini tuzish) va uni Xaridor tanlagan usulda ko'rsatilgan manzilga yetkazib berish.
«To'lov»	Mahsulotlar uchun to'lov va ularni yetkazib berish maqsadida Xaridorning Sotuvchi oldidagi pul majburiyatini bajarish

Shartnomada ushbu bo'limda belgilanmagan atamalardan foydalanilgan bo'lishi mumkin. Bunday holda, bunday atamaning talqini, agar Shartnoma matnida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, Humans Sodiqlik dasturi qoidalari, bundan keyin Qoidalar deb ataladigan matnga muvofiq amalga oshiriladi.

## **1. Shartnoma predmeti**

1.1. Ushbu shartnoma Humans va Xaridor o'rtasida, Sotuvchi va Xaridor o'rtasida Xaridor Marketpleysdan foydalanganda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Sotuvchi va Xaridor o'rtasida Marketpleysdan foydalanib tuziladigan olib-sotishning ahamiyatli va boshqa shartlari, shuningdek ularni bartaraf etish usullari ushbu Shartnomada belgilangan, muayyan Sotuvchining Mahsuloti kartochkasida bevosita belgilangan boshqa holatlar bundan mustasno.

## **2. Ro'yxatdan o'tish va avtorizatsiya**

2.1. Marketpleysdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish uchun Xaridor Humans mobil ilovasida ro'yxatdan o'tishi yoki avtorizatsiya qilishi, shuningdek ushbu Shartnoma va Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatining shartlarini qabul qilishi zarur.

2.2. Xaridor Mobil ilovada kirish uchun parolni mustaqil yaratadi. Bunda Humans parol va uning shakliga (uzunligi, mumkin bo'lgan ramzlar va hokazo) talablar qo'yishga haqli.

2.3. Shartnoma tomonlari ushbu Shartnomani tuzish va bajarishga layoqatli ekanligiga kafolat beradilar.

2.4. Xaridorning Mobil ilovaga kirish uchun login va paroli Humans Market'ga kirish uchun zarur va yetarli ma'lumot hisoblanadi va bular Xaridorning aniq identifikatsiyasidir.

## **3. Xarid qilish**

### **Buyurtmani rasmiylashtirish**

3.1. Marketpleys yordamida Xaridor Mahsulotlar haqida ma'lumot izlashi va zarur Mahsulotni xarid qilishi mumkin.

3.2. Xaridor Mahsulotlarni quyidagi usullarda olishi mumkin: ko'rsatilgan manzilga Sotuvchi, Humans yoki uchinchi shaxslar kuchi bilan kuryer tomonidan yetkazib berilishi.

3.3. Xaridor Buyurtma qilganda:

- Mahsulotni sotayotgan Sotuvchi bilan bevosita shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. Marketpleysda «Buyurtmani rasmiylashtirish» (yoki boshqa shu ma'nodagi) tugmani bosib, Xaridor Sotuvchi bilan ushbu Shartnomada va Marketpleysdagi Mahsulot kartachasida (unda Mahsulot haqidagi ma'lumot, uning xususiyatlari (agar bo'lsa), Mahsulot narxi aks ettirilgan) belgilangan shartlarda chakana savdo-sotiq shartnomasini tuzadi. Mahsulotlar soni Xaridor tomonidan Buyurtmani shakllantirishda ko'rsatiladi.
- Humans, Sotuvchi yoki uchinchi shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan yetkazib berish xizmatining buyurtmachisi hisoblanadi, agar Xaridor tomonidan Xaridorning joylashgan joyigacha kuryerlik yetkazma tanlangan bo'lsa.

3.4. Humans va Sotuvchi Xaridorga Mahsulotni yetkazish bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishini uchinchi shaxslarga topshirishi mumkin, bunda uning yetkazilishiga javobgar bo'lib qoladi. Agar yetkazma uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, Humans yoki

Sotuvchi ularga bunday yetkazmani tashkil qilish uchun Xaridor bilan bog'lanish ma'lumotlarini beradi.

3.5. Buyurtma qilar ekan («Buyurtmani rasmiylashtirish» yoki boshqa shunday ma'nodagi tugmani bosib), Xaridor quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Mahsulotlar (xizmatlar) haqidagi ma'lumot Xaridorga to'liq yetkazilgan. O'zbekiston Respublikasining FK 427 moddasiga asosan Sotuvchi Xaridorga sotuvga taklif etilayotgan mahsulot haqidagi bunday ma'lumotni taqdim etishda va ularning mazmuniga qonunchilik tomonidan belgilangan yoki odatda chakana savdo-sotiqda qo'yiladigan talablarga mos ravishda zarur va ishonchli ma'lumotni taqdim etishi shart.
- u ushbu Shartnoma bilan to'liq tanishgan va to'liq tushunadi, shuningdek Sotuvchi bilan tuzilgan Mahsulotning chakana savdo-sotiq shartnomasi predmeti va shartlarini tushunadi va ularga rozi.
- Xaridor Mahsulotni sotishning barcha ahamiyatli shartlari bilan tanishgan. Mahsulotni sotishning ahamiyatli shartlari Sotuvchi tomonidan Mahsulotning ta'rifi keltirilgan sahifada ko'rsatiladi.

3.6. Buyurtmani uzatishni tasdiqlash uchun Xaridorga SMS va push-xabarnomalar yuboriladi.

3.7. Sotuvchining Mahsulotni uzatish bo'yicha majburiyatlari yoki Mahsulotni uzatish bilan bog'liq boshqa majburiyatlari Mahsulot omborxonada borligi tasdiqlangan lahzadan boshlanadi. Agar Mahsulotga to'langandan so'ng Mahsulot omborxonada kerakli miqdorda bo'lmasa yoki Buurtmada ko'rsatilgan sonda Mahsulotni yetkazishning imkoni bo'lmasa, Sotuvchi Buyurtmani bekor qilishi yoki Xaridorga uni o'zgartirishni taklif qilish huquqiga ega. Oxirgi keltirilgan vaziyatda Buyurtmani o'zgartirish Xaridorning Sotuvchi vakillari bilan muloqoti orqali mumkin, jumaladan telefon yoki boshqa aloqa kanallari orqali. Xaridor va Sotuvchi tomonidan Buyurtmani o'zgartirishga kelishilgan lahzadan boshlab Buyurtma tegishlicha o'zgargan hisoblanadi.

3.8. Sotuvchi Humans bilan Mahsulotlarni yetkazish haqida tuzilgan shartnomaga, shuningdek Sotuvchi bilan Mahsulotlarni olib-sotish shartnomalariga nisbatan o'zining harakatlari mohiyatini va oqibatlarini to'liq tushunadi.

3.9. Mahsulot grafik tasvir-namunalar orqali taqdim etilgan, bu Sotuvchining mulki hisoblanadi.

3.10. Monitorlarning turli texnik xususiyatlari tufayli Mahsulotning rangi Marketpleysda taqdim etilganidan farq qilishi mumkin. Mahsulotning tashqi ko'rinishi Marketpleysda ta'riflangandan farq qilishi mumkin.

3.11. Mahsulotning mobil ilovada joylashganligi uning mavjudligi kafolati emas.

### **Mahsulot uchun to'lov**

3.12. Marketpleysdan foydalangan holda qilingan Buyurtmalarni to'lash naqd pul orqali yoki naqd bo'lmagan pul mab'lag'lari orqali amalga oshiriladi. Muayyan bir Mahsulotga to'lash usuli uning kartachasida ko'rsatilgan. Naqd pulsiz to'lashning mavjud usullari:

- Humans ilovasiga bo'langan bank kartalari;

- Humans'ning elektron pullar bilan sotib olish va amalga oshirish Qoidalariga ko'ra elektron pullar ([electronic-money-ru.pdf \(humans.uz\)](#)).

3.13. Xaridor to'lovni Sotuchining foydasiga amalga oshiradi va bunda To'lov tashkilotini yoki Elektron pullar tizimi operatorini jalb qiladi.

3.14. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda, hisob-kitobda elektron chek Xaridorga Mobil ilovada Buyurtma tafsilotlari haqidagi ma'lumotda taqdim etiladi.

3.15. Mahsulotning narxi milliy valyutada ko'rsatiladi – o'zbekcha so'mda va barcha qo'llaniladigan soliqlarni o'z ichiga oladi.

3.16. Xaridor uchun Marketpleysdan foydalanish bepul. To'lovlarni amalga oshirishda Xaridor To'lov tashkiloti yoki Elektron pullar tizimi operatorining (keyingi o'rinlarda - Operator) saytlarida joylashtirilgan ofertaga binoan To'lov tashkiloti yoki Operator tomonidan belgilangan komissiyalarni to'laydi. Qo'shimcha ravishda Humans hech qanday to'lov yoki komissiya olmaydi.

3.17. Humans Xaridorga to'lov xizmatlarini ko'rsatmaydi. Humans To'lov tashkiloti yoki Operatorning texnologik hamkori hisoblanadi va Sotuvchi va To'lov tizmi o'rtasida ma'lumotlar almashinishni ta'minlaydi.

Buyurtmani qabul qilish

3.18. Buyurtma Xaridor tomonidan uning o'zi tanlagan yetkazma davri ichida qabul qilinishi kerak.

3.19. Xaridor tomonidan ushbu shartnomaning 3.18 bandida keltirilgan muddatda kuryer yetkazib bergan Mahsulotning qabul qilinmaganligi va Mahsulotni qabul qilish uchun hech qanday boshqa zarur harakatlar bajarmaganligi Xaridorning Mashulotdan voz kechgani deb tushuniladi. Bunday holatda Buyurtmani qaytarish rasmiylashtiriladi va Mahsulot uchun to'langan pul mablag'lari qaytarib beriladi.

3.20. Tegishli buyurtmaning holati "Yetkazildi"ga o'zgargan paytda Mahsulot Xaridorga topshirilgan (yetkazilgan) hisoblanadi, bu haqida ma'lumot Xaridorga SMS yoki push-xabarnoma ko'rinishida yuboriladi, shuningdek Mobil ilovada aks ettiriladi. Agar Xaridor Buyurtmaning holati "Yetkazildi"ga o'zgarishi bilan rozi bo'lmasa, u darhol Humans'ga bu haqida xabar berishi kerak. Lekin har qanday holatda ham Buyurtmaning holati o'zgargan paytdan boshlab bir sutkadan kech emas.

### **Xaridorning Mashulotning sifatiga e'tirozisiz uni rad etishi**

3.21. Xaridor ma'qul sifatdagi Mahsulotdan u yetkazishga o'tkazilishidan oldin uni rad etish huquqiga ega, bu haqida Xaridorga SMS ko'rinishida, shuningdek Mobil ilovada xabar beriladi, Mahsulotning kamchiligi bo'lmasa, lekin u o'lchami, rangi, texnik xususiyatlari va boshqa sabablar tufayli to'g'ri kelmagan bo'lsa, u yetkazishga o'tkazilgandan keyin xarid qilingan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida oziq-ovqat turiga kirmagan mahsulotlarni Xaridor qaytarish, Sotuvchida ma'qul sifatdagi mahsulotga almashtirish va pul mablag'larini qaytarib olish huquqiga ega.

3.22. Ma'qul sifatdagi mahsulotni mahsulotdan foydalanilmagan bo'lsa, qadog'i shtrix-kodi (qr-kod) bilan saqlangan bo'lsa, ishlab chiqarilgandagi yorliqlar, birkalar, plombalari saqlangan bo'lsa, mahsulot ko'rinishi, iste'molchilik xususiyatlari, shuningdek ko'rsatilgan Mahsulotni xarid qilganlik haqidagi hujjat saqlangan bo'lsa qaytarish imkoni bor.

3.23. Agar Mahsulotlarning tashqi ko'rinishi ishlab chiqaruvchining iste'mol o'rami bilan birga uni boshqa Xaridorga sotish imkonini bersa, mahsulot ko'rinishi buzilmagan deb hisoblanadi. Mahsulotni qayta sotishga jo'natishga imkon bermaydigan qadoqlashning yo'qligi/shikastlanishi, foydalanish izlari (shu jumladan bir martalik foydalanish) sotuvchi tomonidan Mahsulotni keyingi sotishga to'sqinlik qiladi va bu Mahsulotning ko'rinishi yaxshi holatda emasligidan xabar beradi.

3.24. Oziq-ovqat mahsulotlarini (jumladan BFQ), odamlar va hayvonlar uchun vitaminlar, hayvonlar uchun yemlar va preparatlarni qaytarish faqatgina uni qabul qilishdan oldin yoki olish vaqtida imkoni bor.

3.25. Xaridorlar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solingan qaytarib bo'lmaydigan yoki shunga o'xshash mahsulotga almashtirib bo'lmaydigan ma'qul sifatdagi nooziq mahsulotlar ro'yxati bilan tanishishlari kerak:

1. Uy sharoitida kasalliklarning oldini olish va davolash uchun mahsulotlar (metall, kauchuk, to'qimachilik va boshqa materiallardan tayyorlangan sanitariya-gigiyena vositalari, asboblar, tibbiy asboblar va jihozlar, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi vositalari, linzalar, bolalar parvarishi vositalari, dori-darmonlar).
2. Shaxsiy gigiyena vositalari (tish cho'tkalari, taroqlar, soch qisqichlari, sochga turmak beradigan jihozlar, pariklar, shinyonlar va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar).
3. Parfyumer-kosmetik mahsulotlar.
4. To'qimachilik mahsulotlari (paxta, zig'ir, ipak, jun va sintetik matolar, matolar kabi to'qilmagan materiallardan tayyorlangan buyumlar - lentalar, bezak matolar va boshqalar); kabel mahsulotlari (simlar, shnurlar, kabellar); qurilish va pardoqlash materiallari (linoleum, plyonka, gilam va boshqalar) va metrlab o'lchanib sotiladigan boshqa mahsulotlar.
5. Tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari (tikuv va trikotaj to'shak mahsulotlari, paypoq va qo'lqoplar).
6. Polimer materiallardan tayyorlangan oziq-ovqat bilan aloqada bo'lgan mahsulotlar va materiallar, shu jumladan bir martalik foydalanish uchun (oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va tashish uchun idishlar va oshxona anjomlari, idishlar va qadoqlash materiallari).
7. Uy kimyoviy moddalari, pestitsidlar va agrokimyolar.
8. Mebel (mebel to'plamlari).
9. Qimmatbaho metallardan, qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar, yarim qimmatbaho va sintetik toshlar qo'shilgan qimmatbaho metallardan yasalgan, qirralangan qimmatbaho toshlar.

10. Avtomobillar va mototsikllar, treylerlar va ular uchun raqamlangan agregatlar; qishloq xo'jaligi ishlarini kichik mexanizatsiyalashning ko'chma vositalari; qayiqlar va boshqa maishiy suv kemalari.

11. Kafolat muddati belgilangan texnik jihatdan murakkab uy-ro'zg'or buyumlari (maishiy metall kesish va yog'ochga ishlov berish dastgohlari; maishiy elektr mashinalari va asboblari; maishiy radioelektron uskunalari; maishiy hisoblash va nusxa ko'chirish uskunalari; foto va kino uskunalari; telefon va faks uskunalari; elektr musiqa asboblari). elektron o'yinchoqlar).

12. Hayvonlar va o'simliklar.

3.26. Agar Xaridor tegishli sifatdagi Mahsulotni rad etsa, kuryer orqali yetkazib berish uchun to'langan haq qaytarilmaydi.

#### **Sifatsiz Mahsulotlarni qaytarish va almashtirish**

3.27. Agar Mahsulotda nuqsonlar aniqlansa, agar ular Sotuvchi tomonidan ko'rsatilmagan bo'lsa, Xaridor o'z xohishiga ko'ra quyidagi huquqlarga ega:

- o'xshash markadagi Mahsulot (bir xil model va (yoki) buyum) bilan almashtirishni talab qilish;
- sotib olish narxini mos ravishda qayta hisoblash bilan boshqa markadagi (model, buyum) bir xil Mahsulotga almashtirishni talab qilish;
- sotib olish narxini mutanosib ravishda kamaytirishni talab qilish;
- Mahsulotdagi nuqsonlarni bepul bartaraf etishni yoki ularni tuzatish xarajatlarini Sotuvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan qoplanishini talab qilish;
- oldi-sotdi shartnomasini bajarishni rad etish va Mahsulot uchun to'langan pul mablag'ini qaytarishni talab qilish.

3.28. Sotuvchining talabiga binoan va uning hisobidan Xaridor nuqsonli Mahsulotni Sotuvchiga qaytarishi shart.

3.29. Xaridor Shartnomaning 8.1 bandida nazarda tutilgan tartibda Sotuvchiga Mahsulotning kamchiliklari tufayli sanab o'tilgan talablarni qo'yichga haqli, agar ular kafolat muddati yoki yaroqlilik muddatida aniqlangan bo'lsa. Kafolat muddati olti oydan kam belgilangan holatlarda va



Mahsulot kamchiliklari Xaridor tomonidan kafolat muddati tugagandan keyin aniqlangan, lekin Xaridorga Mahsulot topshirilgan kundan boshlab olti oy ichida bo'lgan holatlarda, Sotuvchi javobgar bo'ladi, agar Xaridor Mahsulotning kamchiliklari unga topshirilguncha yuzaga kelganini yoki shu paytgacha yuzaga kelgan sabablar tufayli ekanligini isbotlasa.

Kafolat muddati tugagandan so'ng Sotuvchi Mahsulotning hech qanday kamchiliklari uchun javobgar emas.

Humans kafolat muddatini tayinlashga huquqi bo'lmaganligi sababli, uni ishlab chiqaruvchi yoki Sotuvchi tayinlaydi. Mahsulotga kafolat muddati haqidagi ma'lumot Mahsulotning kartachasida (agar bo'lsa) ko'rsatiladi.

3.30. Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan belgilangan 14 kunlik muddat yoki kafolat muddati tugaganda, Xaridor tomonidan Mahsulotning kamchiliklari aniqlansa, va agar muddat belgilanmagan bo'ssa, unda olti oy ichida Xaridor Sotuvchiga ushbu bandeda sanab o'tilgan talablarni qo'yishga haqli, agar Mahsulotning kamchiliklari uni Xaridorga topshirishdan oldin yoki shu lahzagacha yuzaga kelgan sabablarga ko'ra yuzaga kelganini isbotlasa.

3.31. Bunday isbot sifatida Sotuvchi hisobidan va uning tashabbusi bilan o'tkazilgan ekspertiza xulosasi bo'lishi mumkin.

3.32. Mahsulotni qaytarish Sotuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi talablarini inobatga olgan holdagi tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

### **Mahsulotni yetkazish**

3.33. Xaridorga Mahsulotni yetkazish Buyurtmani rasmiylashtirishda kelishilgan va Xaridor tomonidan Mobil ilovada ko'rsatilgan manzilga va muddatlarda amalga oshiriladi. Humans yoki Sotuvchi Mahsulotning kuryerlik yetkazma hududini cheklashga haqli. Hudud haqidagi ma'lumot Mahsulotning kartachasida yoki Mobil ilovada Sotuvchi haqidagi ma'lumotda aks ettiriladi.

3.34. Mahsulotni yetkazishning aniq narxi Buyurtmani rasmiylashtirishda aniqlanadi va uni Xaridor Buyurtma rasmiylashtirilgandan keyin o'zgartirolmaydi, Sotuvchi bilan narxni o'zgartirishga kelishilganlik holati bundan mustasno.

3.35. Buyurtmani bajarishda kamchiliklarga quyidagilar kiradi:

- Mahsulotning kartachadagi ta'rifi/o'lcham/rangga mos emasligi va boshq.;

- Mahsulot to'plamining to'liq emasligi;
- Mahsulot qadog'i bo'shligi;
- Buyurtmada bir yoki bir nechta Mahsulotlarning yo'qligi;
- Mahsulot mexanik shikastlanish/foydalanish izlari bilan keldi/buzilgan va boshqalar.

3.36. Agar Xaridor Buyurtmani qabul qilganda tekshirmagan bo'lsa, Sotuvchi yoki Humans, agar Xaridor Buyurtmani qabul qilishdan oldin paydo bo'lganligini isbotlasa, Buyurtmani bajarishdagi kamchiliklar uchun javobgardir.4. Pul mablag'larini Xaridorga qaytarish

4.1. Xaridor Mahsulotni qaytarib bergan va qaytarib berishni talab qilgan vaziyatlarda, Sotuvchi mazkur shartnomaga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul mablag'larini qaytarib beradi.

4.2. Mahsulot uchun mablag'larni qaytarish naqd yoki naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladi. Mahsulotni qaytarishning o'ziga xos usuli Sotuvchi tomonidan belgilanadi. Mahsulot uchun pul mablag'larini qaytarish mahsulot uchun to'lov qilingan bank kartasiga qaytariladi.

## 5. Tomonlar huquqlari va majburiyatlari

### 5.1. Xaridor huquqlari va majburiyatlari:

5.1.1. U foydalanuvchi nomi va parolidan foydalangan holda mobil ilovada amalga oshirilgan har qanday harakat xaridorning o'zi tomonidan amalga oshirilgan harakat deb hisoblanishini biladi.

5.1.2. Mobil ilovadagi Marketpleysda harakatlarni bajarish orqali u ushbu shartnomaning matnini o'qiganligini va uning shartlariga rioya qilishni o'z zimmasiga olganligini tasdiqlaydi.

5.1.3. To'lov paytigacha tanlangan Buyurtmaning to'g'riligini diqqat bilan tekshirish majburiyatini oladi (miqdori, tanlangan Mahsulot, Mahsulotlar miqdori va boshqalar).

5.1.4. Ўз логин ва паролини учинчи шахсларга бермаслик мажбуриятини олади, ва шу билан ўз логин ва паролини хавфсизлигига мустақил жавобгар бўлади.

5.1.5. Мобил иловада ўзи ҳақида аниқ, рост ва тўлиқ маълумот қолдиради, бу маълумотни долзарб ҳолатда сақлайди ва ўз ҳамда Маҳсулот етказмаси учун аниқ манзил ҳақида ишончли маълумот беради (Ф.И.Ш, телефон рақамлари, электрон почта манзили).

5.1.6. Xaridorning Login va parolidan foydalangan holda Mobil ilovaga ruxsatsiz (Xaridor tomonidan ta'qiqlangan) kirish va/yoki maxfiylikning va Mobil ilovaga kirishning har qanday buzilishi (buzilganligi haqidagi shubhalar) haqida Mobil ilova chatida yoki 1234 raqami orqali Humans ni darhol xabardor qilishi shart.

5.1.7. U Marketpleys yordamida sotib olingan Mahsulotlar sifati bo'yicha tanbehlar mos Sotuvchiga aytilishini tushunadi.

5.1.8. Marketpleysdan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish, uchinchi shaxslar huquq va manfaatlarini inobatga olish majburiyatini oladi.

5.1.9. Buyurtma tasdiqlanguniga qadar, Mahsulot ta'rifi, to'lov va yetkazma shartlari bilan tanishib chiqadi.

5.1.10. Mazkur Keliuv muddatlarida Mahsulotni qabul qilishi va unga to'lov amalga oshirishi kerak.

5.1.11. Mazkur Kelishuv shartlari, Marketpleysda o'tkazilayotgan aksiyalar qoidalari, mazkur Kelishuvda ko'rsatilgan boshqa ofertalar shartlariga rioya qilishi kerak.

5.1.12. Humans ga Marketpleys to'g'ri ishlashi uchun o'z joylashuvi haqida va Sotuvchilar, Mahsulotlarni joylashgan o'rni, hamda marketing maqsadlari haqidagi ma'lumotlarni berishga rozi bo'ladi. Xaridor foydalanuvchi abonent qurilmasi sozlamalarida geopozitsiyasi haqida ma'lumot berishdan bosh tortishi mumkin.

5.1.13. Marketpleysdan foydalanishda Xaridor aloqa vositalaridan (shu jumladan SMS va push - xabarlar, elektron pochta, telefon aloqasi) va boshqa pochta va ogohlantirish shakllaridan foydalangan holda Humans va/yoki Sotuvchidan ma'lumot va reklama olishga rozilik beradi.

5.1.14. Naqd pulsiz to'lov amalga oshirilishida, Xaridor tomonidan ushbu shartnomani buzganligi, To'lov tashkiloti yoki Operatorining taklifi yoki To'lovni amalga oshirish uchun Marketpleys interfeyslarida nazarda tutilgan harakatlarni bajarmaganligi yoki mablag' yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan holatlardan mustasno ravishda, Xaridor Humans ga shartnomaning 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda va agar masala hal etilmagan bo'lsa, To'lov tashkilotidan to'lov Tashkilotining taklifida nazarda tutilgan tartibda va miqdorda kompensatsiya talab qilish bo'yicha murojaat qilish huquqiga ega.

5.1.15. Humans so'rov olgan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kundan kechiktirmay, Xaridorning To'lovini tasdiqlovchi, Xaridorning ushbu shartnomani to'g'ri bajarishini, shuningdek, Marketpleys dan foydalanishda Xaridorning harakatlarini tushuntiruvchi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qiladi.

5.1.16. Shartnomani bajarish, tanlovlar, aksiyalar o'tkazish, Xaridorlarni va boshqa shunga o'xshash tadbirlarni e'lon qilish va xabardor qilish, Humansning qonuniy huquqlari va manfaatlaridan foydalanish va Marketpleys ishlashini ta'minlash uchun Xaridor Humans ga fotosuratlardan foydalanish uchun universal, muddatsiz huquqni beradi, u ommaviy ravishda qoldiradigan Mahsulotlarga sharhlari matnlari Internetda, eksklyuziv huquqning butun muddati davomida barcha mumkin bo'lgan axborot vositalarida taqdim qiladi, shuningdek, muallifning ismini ko'rsatgan, va ko'rsatmagan holda, bu harakatlarni bajarishni uchinchi shaxslarga o'tkazish huquqini beradi.

5.2. Humans huquq va majburiyatlari:

5.2.1. Marketpleys dan foydalangan holda noqonuniy va adolatsiz harakatlarni aniqlash va bartaraf qilish uchun har qanday oqilona choralarni ko'rish huquqi.

5.2.2. Xaridorning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (skanerlangan nusxasi) va Mahsulotning fotosuratini talab qilish huquqi.

5.2.3. Ushbu shartnoma shartlari yoki aksiyalarda ishtirok etish qoidalari buzilgan taqdirda Mahsulotni Xaridorning mulkiga o'tkazishni rad etish huquqi.

5.2.4. Xaridordan olingan ma'lumotlardan Xaridorga Marketpleys xizmatlarini ko'rsatish, Humans va/yoki Sotuvchilarning marketing, reklama maqsadlarida, Marketpleys xaridorlarining xatti-harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Siyosatida ko'rsatilgan boshqa maqsadlarda foydalanish huquqi.

## 6. Javobgarlikning cheklanishi

6.1. Humans Market "borligicha" (as is), taqdim etiladi, ya'ni bu shuni anglatadiki, Humans Marketpleys'ni o'rnatish, yangilash, qo'llab-quvvatlash va ishlatish paytida yuzaga keladigan muammolar uchun javobgar emas (shu jumladan, boshqa dasturiy mahsulotlar (paketlar, drayverlar va boshqalar) bilan moslik muammolari), Humans'dan foydalanish natijalari bilan mijozlar taxminlari bilan nomuvofiqliklar va hokazo.

6.2. Xaridor Marketpleys'ning Xaridor foydalanadigan boshqa dasturiy ta'minot bilan mos kelmasligi va ziddiyatlari bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar uchun shaxsan javobgar ekanligini biladi.

6.3. Humans Xaridor yoki uchinchi shaxslar Marketpleysdan foydalanish, yoki Marketpleys faoliyati bilan bog'liq vaziyatlarda ularga ko'rsatilgan har qanday zarar, shu jumladan, yo'qotilgan foyda, ma'naviy va boshqa zarar, shu jumladan, Marketpleysda joylangan ma'lumotga asoslangan biror bir qaror qabul qilish va harakatlar amalga oshirish bilan bog'liq zararlarga javobgar bo'lmaydi.

7.4. Humans Xaridor va Sotuvchi o'rtasida Marketpleysdan foydalanish yo'li bilan tuzilgan bitimlar, shu jumladan Xaridor Marketpleysda xaridlarni to'lash uchun foydalanadigan uchinchi shaxslarning xizmatlari (to'lov tizimlari, To'lov tashkilotlari xizmatlari va boshqalar) uchun javobgar bo'lmaydi).

7.5. Humans Xaridor Marketpleysdan foydalanadigan Marketpleysda Sotuvchilar va uchinchi shaxslar tomonidan joylashtirilgan har qanday ma'lumot, materiallar, shuningdek Marketpleys yoki kontentning ommabopligi va Xaridor tomonidan ulardan foydalanish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

7.6. Humans Mobil ilovada Xaridor nomidan noqonuniy xatti-harakatlari natijasida unga kirish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7.7. Humans Marketpleysdagi majburiyatlarning bajarilmasligi yoki noto'g'ri bajarilishi, shuningdek, quyida ko'rsatilgan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi:

7.7.1. Xaridor yoki uchinchi shaxslarning axborot xavfsizligini yoki Humans, Sotuvchilar, To'lov tashkilotlari yoki Marketpleysni tashkil qilishda foydalaniladigan uchinchi shaxslarning dasturiy ta'minoti, uskunalarning normal ishlashini buzishga qaratilgan noqonuniy harakatlari;

7.7.2. Kod, kompyuter viruslari va Marketpleysni tashkil qilish uchun ishlatiladigan Humans uskunalari dasturiy ta'minotidagi boshqa begona kod qismlari xatolari tufayli yuzaga kelgan Marketpleysdagi nosozliklar;

7.7.3. To'lov tashkiloti yoki Sotuvchilarning uskunalari va/yoki dasturiy ta'minotining faoliyati, shuningdek To'lov tashkiloti yoki Sotuvchilarning boshqa harakatlari va/yoki kamchiliklari tufayli Humans o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olmaganligi bilan bog'liq nosozliklar;

7.7.4. Uchinchi shaxslar harakatlari, shu jumladan, To'lov tashkilotlari;

7.7.5. Bank kartasi, elektron pul hisobvarag'i, telefon raqami, Xaridor tomonidan taqdim etilgan manzil haqidagi ma'lumotlarning ishonchsizligi.

## 8. Xaridorlar da'volari

8.1. Marketpleysni umumiy masalalari bo'yicha mijozlarning talablari mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati tomonidan quyidagi kanallarda ko'rib chiqiladi: Mobil ilovani qo'llab-quvvatlash chatiga, 1234 raqamiga qo'ng'iroq qilish, elektron pochtaga murojaat qilishi (aloqa turlari [www.humans.uz](http://www.humans.uz) da ko'rsatilgan).

8.2. Agar Xaridor Marketpleysning ishlashi bo'yicha nizoni hal qilishga rozi bo'lmasa, da'volar quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

8.2.1. Humans shartnomasining muqaddimasida ko'rsatilgan manzilga pochta orqali.

8.2.2. Qo'lda yozilgan imzo bilan imzolangan hujjatning elektron namunasi (skaneri) shaklida elektron pochta orqali.

8.3. Da'vo quyidagi ma'lumotlarni majburiy ko'rsatgan holda bepul shaklda tuziladi: Buyurtma raqami,  
muammoning tavsifi,  
Xaridorning talabi.

## 9. Kelishuvga o'zgartirishlar kiritilishi va kelishuvning to'xtatilishi

9.1. Humans ushbu shartnomani bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega. Shartnoma [www.humans.uz](http://www.humans.uz) veb-saytida Humansning tegishli xabarnomasida ko'rsatilgan paytdan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.2. Humans ushbu shartnomani va Marketpleysning ishlashini bir tomonlama ravishda bekor qilish huquqiga ega, bu haqda Xaridorlarni [www.humans.uz](http://www.humans.uz) veb-saytida e'lon qilish orqali xabardor qiladi.

9.3. Humans har qanday xaridorni ogohlantirishsiz Marketpleys Xaridorlari sonidan chiqarib tashlashga yoki Xaridorning o'zi tomonidan firibgarlik harakatlarida gumon qilish yoki Xaridorga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan firibgarlik harakatlari sodir yetish uchun asoslar mavjud bo'lsa, Xaridorning Marketpleysdan foydalanishini cheklashga haqli, shu jumladan, quyidagi yo'llar bilan:

- Humans Mobil ilovasida bog'langan kartalardan har qanday moliyaviy operatsiyalarga kirishni bloklash;
- Humans Mobil ilovasida birlashtirilgan kartalarning bog'lanishi bekor qilinadi;
- Mobil ilovaga kirish uchun majburiy parolni tiklashni amalga oshirish, hamda agar Xaridor:
  - Kelishuvga rioya qilmasa;
  - Marketpleysdagi ma'lumotlarni o'zgartirish yoki Xaridorlar, ularning to'lovlari va sotuvchilar haqida Marketpleysdan foydalanish uchun foydalanuvchi ssenariylarida ko'zda

tutilmagan ma'lumotlarni olish uchun dasturiy ta'minot, apparat yoki boshqa usullardan foydalanadi;

- Humansning ishbilarmonlik obro'sizlantirib, Humans haqida yolg'on ma'lumot tarqatadi;
- soxta harakatlarni, shuningdek To'lov tashkiloti yoki banklar tomonidan firibgar yoki firibgar operatsiya sifatida tasniflangan harakatlarni amalga oshiradi;
- To'lov tashkilotiga yoki har qanday uchinchi shaxslarga nisbatan adolatsiz harakatlar qiladi, shu jumladan Xaridorning harakatlari to'g'risida har qanday uchinchi shaxslardan shikoyatlar kelib tushsa;
- Humans Sotuvchilarga yoki To'lov tashkilotiga noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etadi;
- naqd pul uchun to'lov sharti bilan Buyurtma beradi, shu bilan birga kurerga javob bermaydi, to'lashni rad etadi va boshqa shunga o'xshash harakatlar;
- nostandart Buyurtmalarni (miqdor chegarasidan tashqariga chiqadigan uy iste'moli uchun notipik Buyurtmalar) Mahsulotni ishlab chiqaradi va keyin ularni bekor qiladi;
- Buyurtmani qabul qiladi, so'ngra Mahsulotlarning sifati va/yoki miqdori bo'yicha da'volar chiqaradi, bu da'voni tekshirish natijasida tasdiqlanmaydi;
- Buyurtma masalalari bo'yicha emas, nomaqbul hulq, odobsiz so'zlarni ishlatish, kurerga qarshi jismoniy kuch ishlatilgani bo'yicha shikoyatlar bilan qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish.

Humans yuqorida ko'rsatilgan yetarli asoslar mavjud bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni o'z xohishiga ko'ra amalga oshirish huquqiga ega va Xaridorni ular haqida oldindan xabardor qilmaslik huquqiga ega.

**9.4. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini bekor qilish Xaridorning Marketpleysdan foydalanishini to'xtatishga olib keladi, chunki Humans Xaridorga Marketpleysdan foydalanish imkoniyatini berish qobiliyatini yo'qotadi.**

---